BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NADIRXANOVA NOZIMA ALISHEROVNA

YOZMA MADANIYATLARARO MULOQOTNI O‘RGATISH JARAYONIDA TALABALARNING SOTSIOLINGVISTIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 378.147:811.111:316.77

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Nadirxanova Nozima Alisherovna
Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish jarayonida talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. 3

Надирханова Нозима Алишеровна
Методика развития социолингвистических навыков студентов в процессе обучения писменной межкультурной коммуникатции…….21

Nadirkhanova Nozima Alisherovna
Methodology for Developing Students’ Sociolinguistic Skills in the Process of Teaching Written Intercultural Communication…….43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……...48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NADIRXANOVA NOZIMA ALISHEROVNA

YOZMA MADANIYATLARARO MULOQOTNI O‘RGATISH JARAYONIDA TALABALARNING SOTSIOLINGVISTIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped12846 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali – www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Achilova Risolat A’zamovna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Dilova Nargiza Gaybullayevna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Saidova Muhayyo Umedilloyevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 10-noyabr soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1020 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil 29-oktyabr kuni tarqatildi.

(2026 - yil 29-oktyabrdagi 24-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.B. Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B. Ro‘ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta’lim tizimining globallashuvi va bilimlarga asoslangan jamiyatning shakllanishi sharoitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’limning xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi oliy ta’lim muassasalarida talabalarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash hamda kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishning samarali metodlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.[1] Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan ilgari surilayotgan xalqaro ta’lim dasturlarida fan, texnologiya va innovatsiyalar yutuqlaridan ta’lim jarayonida keng foydalanish, talabalarning kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda oliy ta’lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Dunyoda pedagogik tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab ilmiy markazlar va muassasalar faoliyati ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmunini yangilash hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, talabalarning funksional savodxonligi, kreativ fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bois, talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirish, ularning tayanch va fanga oid kompetensiyalarni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik va tashabbuskorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ta’lim muhitini yaratish bilan bog‘liq tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos o‘quv-metodik ta’minotni yaratish hamda chet tili o‘qituvchilarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, turli millat va madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan hamda madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxs sifatida tarbiyalash zaruratini ifodalaydi.[2] Shu jihatdan bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, oliy ta’limga autentik materiallar, madaniyatlararo muloqot topshiriqlari, raqamli vositalar va refleksiv baholash usullarini integratsiyalash asosida mazkur kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son «“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ–4623-son “Pedagogik ta’lim

[1] UNESCO. *Towards Knowledge Societies: UNESCO World Report.* – Paris: UNESCO Publishing, 2005. – 226

[2] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Nyu-York, 2017-yil 19-sentabr

sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan xorijiy tillarni o‘qitish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari J.Jalolov, O‘.Hoshimov, I.Yoqubov, G‘.Rahimov, Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Ashurova, M.Galiyeva, F.Rashidova, D.Hoshimova[3] va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan Y.Passov, I.Bim, N.Galskova, N.Gez, E.Solovova, S.Ter-Minasova, V.Safonova, Y.Vereshchagin, V.Kostomarov, A.Berdichevskiy[4] va boshqalar tomonidan chet tilini kommunikativ o‘qitish, til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi, lingvomamlakatshunoslik, sotsiomadaniy kompetensiya hamda madaniyatlararo muloqotni shakllantirishning nazariy va metodik asoslari o‘rganilgan.

Xorijiy olimlardan D.Hymes, J.Gumperz, M.Canale va M.Swain kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik va strategik tarkibiy qismlarini belgilagan, L.Bachman, M.Halliday, C.Kramsch hamda M.Byram, M.Celce-Murcia kommunikativ kompetensiyaning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqqan.

---

[3] Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Sharq, 2003. — 304 b. Rahimov G‘. Ingliz tili O‘zbekistonda: sotsiolingvistik va pragmatik ko‘rsatkichlar: monografiya. — Toshkent: Tamaddun, 2017. — 268 b.
Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. Ashurova D. U., Galieva M. R. Text Linguistics: coursebook. — Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. — 324 p.
Ashurova D. U., Galieva M. R. Stylistics of Literary Text. — Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. — 272 p. F. Rashidova “O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimida CEFRni tatbiq etishning konseptual-metodik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida)” автореф. док.дисс. 2017 y, 28 b. Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка межъязыковой взаимодействий: док.дисс. 2007.– 209 б;

[4] Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — 2-е изд. — Москва: Просвещение, 1991. — 223 с. Бим И. Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе: проблемы и перспективы. — Москва: Просвещение, 1988. — 256 с. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика: учебное пособие. — 3-е изд., стер. — Москва: Академия, 2006. — 336 с. Соловова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. — 2-е изд. — Москва: Просвещение, 2003. — 239 с. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация: учебное пособие. — Москва: Слово/Slovo, 2000. — 261, [1] с. Сафонова В. В. Социокультурный подход к обучению иностранному языку как специальности: дис. … д-ра пед. наук: 13.00.02. — Москва, 1992. — 528 с. + приложения: с. 529–672. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура: лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного: методическое руководство. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Русский язык, 1990. — 246, [1] с. Бердичевский А. Л., Гиниатуллин И. А., Тарева Е. Г. Методика межкультурного иноязычного образования в вузе: учебное пособие / под общ. ред. А. Л. Бердичевского. — 2-е изд. — Москва: ФЛИНТА, 2020. — 368 с.

K.Hyland, J.Swales, A.Johns va T.Lillis[5] tadqiqotlarida yozma nutq, akademik diskurs, yozma janrlar hamda matn yaratishning ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlari o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogika sohasiga oid muammolarni bartaraf etish hamda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish” (2023-2026-yy.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish jarayonida talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talabalarni yozma madaniyatlararo muloqotga tayyorlashning nazariy-metodik tamoyillarini ilmiy asoslash;

talabalarning yozma kommunikativ faoliyatini ta’minlovchi sotsiolingvistik ko‘nikmalar tarkibini aniqlashtirish;

talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarning yozma madaniyatlararo muloqotdagi sotsiolingvistik ko‘nikmalarini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarni yozma madaniyatlararo muloqotda ishtirok etish jarayoni tanlab olinib, unda Buxoro davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universiteti va Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi 3-bosqichning 585 nafar talabasi jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning yozma madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishlarini ta’minlaydigan sotsiolingvistik ko‘nikmalarini takomillashtirish metodikasining mazmuni, vositalari, texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, ekspert baholash, test, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni yozma madaniyatlararo muloqotga tayyorlashda sotsiolingvistik, madaniyatlararo, kompetensiyaviy, kommunikativ va harakatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni yozma diskurs yaratish jarayoniga integrativ tatbiq etishning nazariy-metodik tamoyillari ilmiy asoslangan;

[5] Hymes D. H. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. — Harmondsworth: Penguin, 1972. — P. 269–293. Gumperz J. J. Discourse Strategies. — Cambridge: Cambridge University Press, 1982. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, No. 1. — P. 1–47. — DOI: 10.1093/applin/I.1.1. Bachman L. F. Fundamental Considerations in Language Testing. — Oxford: Oxford University Press, 1990. — 408 p. Halliday M. A. K. Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. — London: Edward Arnold, 1978. — 256 p. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 1993. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 124 p. Celce-Murcia M., Dörnyei Z., Thurrell S. Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model with Content Specifications // Issues in Applied Linguistics. — 1995. — Vol. 6, No. 2. — P. 5–35. — DOI: 10.5070/L462005216. Hyland K. Second Language Writing. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 299 p. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. Johns A. M. Text, Role and Context: Developing Academic Literacies. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997. Lillis T. M. Student Writing: Access, Regulation, Desire. — London: Routledge, 2001. — 208 p.

talabalarning yozma kommunikativ faoliyatini ta’minlovchi sotsiolingvistik ko‘nikmalar tarkibi nutq registri, pragmatik moslik, kommunikativ niyat, murojaat strategiyalari, nutqiy etiket, ijtimoiy rollar, madaniy qadriyatlar va diskursiv me’yorlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi lingvodidaktik komponentlar asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli autentik kommunikativ vaziyatlar, professional-pedagogik yozma janrlar, telekollaboratsiya, raqamli ta’lim resurslari va sun’iy intellekt asosidagi individual teskari aloqani motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv hamda integrativ bosqichlarda uyg‘unlashtiruvchi “InterWrite–Socio Tech” mualliflik texnologiyasini joriy etish orqali takomillashtirilgan;

talabalarning yozma madaniyatlararo muloqotdagi sotsiolingvistik ko‘nikmalarini baholash mezonlari sotsiolingvistik moslik, pragmatik kompetentlik, madaniyatlararo sezgirlik, diskursiv yaxlitlik, yozma janrga muvofiqlik, kommunikativ samaradorlik, lingvistik moslik, refleksivlik, raqamli yozma muloqot va professional-pedagogik diskursni qamrab oluvchi integrallashgan diagnostik indikatorlar hamda darajaviy ko‘rsatkichlar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi fanini sotsiolingvistik va madaniyatlararo yondashuvlar asosida tashkil etishga mo‘ljallangan o‘quv-metodik ta’minot ishlab chiqilgan hamda ta’lim jarayoniga joriy etilgan;

60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yozma savodxonlik, kommunikativ moslashuvchanlik, pragmatik muvofiqlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan “Madaniyatlararo muloqot” darsligi ishlab chiqilgan va oliy ta’lim amaliyotida foydalanishga tavsiya etilgan;

talabalarning yozma madaniyatlararo muloqot jarayonidagi sotsiolingvistik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga mo‘ljallangan “InterWrite–Socio Tech” mualliflik pedagogik texnologiyasi ishlab chiqilgan;

talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalari rivojlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash mezonlari, diagnostik indikatorlar, topshiriqlar majmuasi va darajaviy ko‘rsatkichlardan iborat monitoring vositalari ishlab chiqilib, tajriba-sinov jarayonida amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘rganilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yondashish; xorijiy va mahalliy olimlarning chet va ingliz tillarini o‘rgatish sohasida to‘plangan tajribasiga tayanish; ta’lim vazifalariga mos metodlarni qo‘llash; ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda hamda xalqaro va respublika konferensiyalardagi ma’ruzalarda tadqiqot mazmunini yoritilishi bilan ta’minlandi. Tajriba-sinov ishlarining ishonchliligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanganligi bilan ham tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishda talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari takomillashtirilgani, sotsiolingvistik ko‘nikmalarning mazmuni, tarkibiy komponentlari, mezon va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgani hamda metodik modelning ilmiy asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “InterWrite–Socio Tech” mualliflik

texnologiyasi, mashqlar tizimi, autentik kommunikativ topshiriqlar, raqamli vositalar va baholash mezonlari ishlab chiqilgani hamda ulardan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash va o‘quv-uslubiy ta’minotni takomillashtirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish jarayonida talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini oshirish metodikasiga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarni yozma madaniyatlararo muloqotga tayyorlashning nazariy-metodik asoslari sotsiolingvistik, madaniyatlararo, kompetensiyaviy, kommunikativ va harakatga yo‘naltirilgan yondashuvlarni yozma diskurs yaratish jarayoniga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan tavsiyalardan oliy o‘quv yurti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Madaniyatlararo muloqot” nomli darsligining mazmunini boyitishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-fevraldagi № 2821-9769-8ad4-bf63-a166-8802-0553 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning yozma madaniyatlararo muloqot jarayonida uchraydigan sotsiolingvistik xatoliklar va ularning lingvopragmatik kontekst bilan bog‘liqligi o‘rganilib, kompetensiyani rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan;

talabalarning yozma kommunikativ faoliyatini ta’minlovchi sotsiolingvistik ko‘nikmalar tarkibi nutq registri, pragmatik moslik, kommunikativ niyat, murojaat strategiyalari, nutqiy etiket, ijtimoiy rollar, madaniy qadriyatlar va diskursiv me’yorlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlovchi lingvodidaktik komponentlar asosida aniqlashtirilgan tavsiyalardan Buxoro davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat universiteti hamda Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish amaliyotini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi 2026-yil 11-iyundagi 02/01-01-525-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning yozma madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, sotsiolingvistik ko‘nikmalari hamda kommunikativ vaziyatlarga mos nutqiy vositalarni tanlash qobiliyati rivojlangan;

talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli autentik kommunikativ vaziyatlar, professional-pedagogik yozma janrlar, telekollaboratsiya, raqamli ta’lim resurslari va sun’iy intellekt asosidagi individual teskari aloqani motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv hamda integrativ bosqichlarda uyg‘unlashtiruvchi “InterWrite–Socio Tech” mualliflik texnologiyasini joriy etish orqali takomillashtirilgan tavsiyalardan Qarshi davlat universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan Toshkentdagi AQSH elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan “English Access Microscholarship Program” nomli xalqaro grant doirasida dissertatsiyaning ilmiy natijalaridan foydalanilgan (2026-yil 15-iyundagi 03/4376-sonli SUZ-800-21GR-3181 loyiha rahbari ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasi va madaniyatlararo yozma muloqot ko‘nikmalari rivojlanib, ingliz tilida pragmatik jihatdan mos va samarali muloqot olib borish samaradorligi oshgan;

talabalarning yozma madaniyatlararo muloqotdagi sotsiolingvistik ko‘nikmalarini baholash mezonlari sotsiolingvistik moslik, pragmatik kompetentlik, madaniyatlararo sezgirlik, diskursiv yaxlitlik, yozma janrga muvofiqlik, kommunikativ samaradorlik, lingvistik to‘g‘rilik, refleksivlik, raqamli yozma muloqot va professional-pedagogik diskursni qamrab oluvchi integrallashgan diagnostik indikatorlar hamda darajaviy ko‘rsatkichlar asosida takomillashtirilgan

tavsiyalardan 2024–2025-yillarda amalga oshirilgan 209131-raqamli Buyuk Britaniyaning Tashqi ishlar, Hamdo‘stlik va Taraqqiyot vazirligi hamda Toshkent shahridagi Britaniya elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan “English and Inclusion” project within the framework of the “Accelerating English Language Teaching in Central Asia” (AELLCA) xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (Buxoro davlat pedagogika institutining 2026-yil 13-iyundagi 30-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning chet tilidagi yozma madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini baholashning aniqligi oshib, sotsiolingvistik xatolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish samaradorligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 1 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib uning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti yoritilgan, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, izlanish natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan, chop etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati va dissertatsiyaning hajmi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish jarayonida talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini oshirishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida yozma madaniyatlararo muloqot va sotsiolingvistik kompetensiya tushunchalarining lingvistik hamda pedagogik mohiyati, ularning o‘zaro aloqadorligi va ilmiy-nazariy asoslari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, sotsiolingvistika, pragmalingvistika va antroposentrik tilshunoslik yondashuvlari asosida muammoning zamonaviy ilmiy talqini tahlil qilinib, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari tizimli ravishda umumlashtirilgan.

Ma’lumki, sotsiolingvistika atamasi fanga 1952-yilda amerikalik sotsiolog X. Karri tomonidan kiritilgan bo‘lib, u tilning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganuvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. J.A. Fishman tomonidan tahrir qilingan “Readings in the Sociology of Language” to‘plamida sotsiolingvistikaning asosiy muammolari tilshunoslar, sotsiologlar, antropologlar va kommunikatsiya sohasi mutaxassislari tomonidan keng yoritilgan. Ayrim tadqiqotchilar esa ushbu fanning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan rus tilshunoslik an’analaridan izlash lozimligini ta’kidlaydilar.

Sotsiolingvistika — tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnografiya kesishmasida rivojlanadigan, tilning ijtimoiy tabiati, funksiyalari hamda

jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini o‘rganuvchi fan sifatida izohlanadi.[6] Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida esa sotsiolingvistika tilning ijtimoiy sharoitda rivojlanishi va qo‘llanishini tadqiq etuvchi yo‘nalish sifatida tavsiflanadi.[7] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sotsiolingvistika “tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta’siri hamda tilning jamiyat hayotidagi o‘rni bilan bog‘liq muammolarni o‘rganuvchi ilmiy-nazariy soha” sifatida ta’riflangan[8].

Yuqoridagi ilmiy-tahliliy o‘rganishlar asosida mavzu doirasida quyidagi mualliflik ta’riflari keltirib o‘tildi: Sotsiolingvistika[9] — til vositalarining ijtimoiy-madaniy kontekst, kommunikativ vaziyat va muloqot ishtirokchilarining maqomiga muvofiq tanlanishi hamda qo‘llanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan.

Sotsiolingvistik ko‘nikma[10] — talabaning yozma madaniyatlararo muloqotda adresat, kommunikativ maqsad va ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olib, til birliklari, nutq registri, murojaat shakllari hamda etiket formulalarini pragmatik va madaniy jihatdan maqbul qo‘llashga yo‘naltirilgan amaliy harakatlar majmuidir.



“1-rasm.” Sotsiolingvistika tushunchasining mazmuniy-tarkibiy tuzilmasi

Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A. Boduen de Kurtene ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u “Til faqat kishilar jamiyatida mavjud ekan, u holda, uning ruhiy tomonidan tashqari, ijtimoiy tomoniga ham har doim e’tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi bo‘lib xizmat qilishi lozim”, - deb yozgan[11]. XX asr boshlarida Yevropa va Rossiya tilshunoslik maktablarida tilning ijtimoiy tabiatiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, A. Meye, Sh. Balli, Y.D. Polivanov, V.M. Jirmunskiylar til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asoslab berganlar.

XX asrning birinchi yarmida sotsiolingvistika asosan diaxron yo‘nalishda rivojlanib, til evolyutsiyasi va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi aloqalar o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik sinxron yondashuv ustuvorlik kasb etib, til strukturasi va ijtimoiy tuzilma o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tahlil etila boshlandi. Zamonaviy


[6] Беликов В.И., Крысин Л.П. *Социолингвистика: учебник для вузов*. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 2001. – 436 с.
[7] Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2002.–168 b.
[8] O’zbek tilining izohli lug‘ati. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.–Toshkent.: 2006. IV jild, 2008-yil, 557-bet
[9] Mualliflik yondashuvi
[10] Mualliflik yondashuvi
[11] Бодуэн де Куртенэ И.А. *Избранные труды по общему языкознанию*. — Т. II. — М.: Издательство Академии наук СССР, 1963. — С. 15.

sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri U.Labov bu fanni “tilni uning ijtimoiy kontekstida o‘rganish” sifatida ta’riflab, tilga ta’sir qiluvchi yosh, jins, ijtimoiy mavqe, kasb va madaniyat kabi omillarni asosiy tadqiq obyekti sifatida belgilagan[12].

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, sotsiolingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u til vositalarini ijtimoiy-madaniy va situatsion kontekstga mos ravishda tanlash va qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi.

L.F.Zuyeva sotsiolingvistik kompetensiyani ijtimoiy-madaniy kontekstga muvofiq til vositalarini tanlash va qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etadi.[13] M.Canale va M.Swain esa mazkur kompetensiya ijtimoiy kontekstlarni anglash, nutq vaziyatiga mos til variantlarini tanlash hamda ularning sotsio-stilistik xususiyatlarini hisobga olishni qamrab olishini ta’kidlaydi.[14]

Tadqiqotda ilmiy va o‘quv adabiyotlar tahlili asosida yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishda talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik izchilligi aniqlashtirildi (2-rasmga qarang).



“2-rasm.” Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishning nazariy-metodik izchilligi.

Rasmda keltirilgan bosqichlarning o‘zaro uzviyligi natijasida talabalarda ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos yozma muloqotni amalga oshirish, madaniyatlararo tafovutlarni anglash va zamonaviy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati rivojlanishi nazariy va metodik yondashuvlar asosida dalillandi.

Shunday qilib, sotsiolingvistika nafaqat til tizimini, balki uni shakllantiruvchi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillarni ham kompleks tarzda o‘rganadi. Bu esa til hodisalarini zamonaviy globallashuv jarayonlari, ko‘p tillilik sharoiti va ijtimoiy transformatsiyalar bilan bog‘liq holda talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda talabalarni yozma madaniyatlararo muloqotga tayyorlash sotsiolingvistik, madaniyatlararo, kompetensiyaviy, kommunikativ va harakatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi asosida tashkil etilishi belgilangan. Mazkur integratsiya quyidagi izchillikda amalga oshiriladi: ijtimoiy-

[12] Labov W. “Phonological correlates of social stratification”. AA, 66 (6), part 2, 1964. –P. 170.
[13] Зуева Л.Ф. *Формирование социолингвистической компетенции студентов вузов физической культуры*: дисс. ... канд. пед. наук. – Малаховка, 2002. – 180 с. – С. 9.
[14] Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // *Applied Linguistics*. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47. DOI: 10.1093/applin/I.1.1

madaniy kontekstni anglash → kommunikativ vaziyatni tahlil qilish → tegishli nutq registri va til vositalarini tanlash → yozma matn yaratish → madaniy-pragmatik muvofiqlikni baholash → refleksiya va korreksiya.

Tadqiqot natijasida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasi tarkibi quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida aniqlashtirildi:

- lingvistik komponent – leksik, grammatik va uslubiy vositalardan me’yoriy foydalanish;
- sotsiomadaniy komponent – milliy-madaniy qadriyatlar, nutqiy etiket, an’ana va xulq-atvor me’yorlarini hisobga olish;
- pragmatik komponent – kommunikativ niyat, adresat, vaziyat va muloqot maqsadiga mos til vositalarini tanlash;
- diskursiv komponent – yozma matnning mazmuniy yaxlitligi, mantiqiy izchilligi va janr talablariga muvofiqligini ta’minlash;
- madaniyatlararo komponent – turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni anglash, tolerantlik va madaniy sezgirlikni namoyon etish;
- kommunikativ komponent – yozma muloqotni samarali rejalashtirish va uning natijadorligini ta’minlash;
- raqamli komponent – elektron yozishma, onlayn forum va boshqa raqamli muhitlarda muloqot me’yorlariga rioya qilish;
- refleksiv komponent – yozma nutqni mustaqil baholash, sotsiolingvistik xatolarni aniqlash va korreksiya qilish;
- professional-pedagogik komponent – kasbiy vaziyatlarda pedagogik maqsadga muvofiq yozma diskurs yaratish.

Ushbu komponentlarning integratsiyasi talabalarning yozma madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini belgilab: “ijtimoiy-madaniy bilim → vaziyatni anglash → til vositalarini tanlash → yozma diskurs yaratish → kommunikativ muvofiqlik → refleksiv baholash ko‘nikmalarini” shakllantira olishini ta’minlovchi integrativ kasbiy sifat sifatida tavsiflandi.

Yozma madaniyatlararo muloqotda sotsiolingvistik ko‘nikmalar quyidagi usullar orqali namoyon bo‘lishi o‘rganildi:

- rasmiy va norasmiy nutq registrlarini vaziyatga mos tanlash;
- adresatning yoshi, maqomi va ijtimoiy roliga muvofiq murojaat shakllarini qo‘llash;
- xushmuomalalik va nutqiy etiket formulalaridan foydalanish;
- kommunikativ niyatni aniq hamda madaniy jihatdan maqbul ifodalash;
- milliy-madaniy leksika, frazeologik birlik va konnotatsiyalarni o‘rinli qo‘llash;
- yozma janrning kompozitsion va uslubiy talablariga rioya qilish;
- madaniy tafovut, stereotip va kommunikativ to‘siqlarni hisobga olish;
- yozma matnning pragmatik mosligi, diskursiv yaxlitligi va kommunikativ samaradorligini ta’minlash.

Demak, talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasi - bu til, madaniyat va pedagogik faoliyat integratsiyasini ta’minlovchi, o‘qituvchining professional kommunikativ madaniyatini belgilovchi murakkab ko‘p komponentli kasbiy kompetensiyadir.[15]

Dissertatsiyaning **“Talabalarning yozma sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida talabalarda sotsiolingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik imkoniyatlari

[15] Mualliflik yondashuvi.

o‘rganilgan. Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish jarayonida talabalarda sotsiolingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilingan hamda talabalarning sotsiolingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modeli tavsiya etilgan.

Talabalarda sotsiolingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini aniqlash yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish metodikasini ilmiy asoslash uchun zarur (3-rasmga qarang).



“3-rasm.” Talabalarda sotsiolingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari

Mazkur imkoniyatlarni tadqiq etish: sotsiolingvistik ko‘nikmalarning tarkibiy komponentlarini aniqlash; samarali pedagogik shart-sharoitlarni belgilash; ta’lim modeli va mualliflik texnologiyasini ishlab chiqish; topshiriq, metod va raqamli vositalarni maqsadli tanlash; baholash mezonlari va diagnostik vositalarni takomillashtirish; talabalarning yozma madaniyatlararo muloqotga kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun zarur.

Yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishda sotsiolingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish talabalarning til vositalarini adresat maqomi, kommunikativ maqsad, ijtimoiy vaziyat, madaniy me’yor va uslubiy registrga muvofiq tanlash hamda qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur jarayon autentik, muammoli, hamkorlikka asoslangan va refleksiv ta’lim texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasi asosida tashkil etiladi (1-jadvalga qarang).


1-jadval.

Tadqiqot doirasida tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalar

Texnologiya	Qo‘llash mazmuni	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
Muammoli ta’lim	Madaniyatlararo ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilish	Pragmatik jihatdan maqbul yechim tanlash
Keys-stadi	Real yozishmalar va kommunikativ holatlarni o‘rganish	Adresat, maqom, maqsad va kontekstni hisobga olish
Process Writing	Rejalashtirish, matn yaratish, tahrirlash va qayta yozish	Izchil va vaziyatga mos yozma matn tuzish
Hamkorlikda yozish	Guruhda matn yaratish va o‘zaro fikr bildirish	Muloqot, kelishuv va konstruktiv qayta aloqa
Loyihaviy ta’lim	Madaniyatlararo mavzuda yozma loyiha ishlab chiqish	Mustaqil izlanish va kommunikativ mahsulot yaratish
Telekollaboratsiya	Xorijiy tengdoshlar bilan raqamli yozishmalar olib borish	Autentik madaniyatlararo muloqot
Refleksiv yozuv	Kundalik, esse va o‘zini baholash matnlarini yozish	Xatolarni anglash va faoliyatni takomillashtirish
Raqamli texnologiyalar	Forum, elektron pochta, platforma va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish	Raqamli yozma muloqot va tezkor qayta aloqa

Demak, pedagogik va psixologik imkoniyatlarning uyg‘unlashtirilishi talabalarda til vositalarini ijtimoiy-madaniy kontekstga mos tanlash, pragmatik jihatdan maqbul matn yaratish, madaniy tafovutlarni anglash va samarali yozma muloqotni amalga oshirishni ta’minlovchi muhim ilmiy-metodik asos hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida mazkur texnologiyalar **“InterWrite–Socio Tech”** mualliflik texnologiyasida yaxlitlashtirildi. “InterWrite–Socio Tech”[16] — yozma madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish jarayonida talabalarning til vositalarini ijtimoiy-madaniy vaziyat, kommunikativ maqsad, adresat maqomi, nutq registri va madaniy me’yorlarga muvofiq qo‘llash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan mualliflik pedagogik texnologiyasidir. Texnologiya nomining mazmuni quyidagicha izohlanadi: **Inter** — madaniyatlararo o‘zaro hamkorlik; **Write** — yozma muloqot va yozma nutq faoliyati; **Socio** — tilning ijtimoiy-madaniy kontekstda qo‘llanishi; Tech — pedagogik texnologiya va metodik vositalar tizimi. Texnologiya motivatsion-tayyorgarlik, kognitiv-rivojlantiruvchi, amaliy-kommunikativ, refleksiv-korreksion va integrativ-natijaviy bosqichlardan tashkil topadi (4-rasmga qarang).




“4-rasm.” “InterWrite–Socio Tech” mualliflik texnologiyasining mazmuniy-bosqichli tuzilmasi

Ushbu texnologiyaning amalga oshirilishi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: Motivatsion-tayyorgarlik bosqichi – yozma madaniyatlararo muloqotga ehtiyojni shakllantirish va dastlabki diagnostikani o‘tkazish. Kognitiv-rivojlantiruvchi bosqich – sotsiomadaniy me’yorlar, yozma janrlar, nutqiy etiket, pragmatik strategiyalar va uslubiy registr haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish. Amaliy-kommunikativ bosqich – autentik vaziyatlar asosida elektron xat, rasmiy murojaat, forum posti, esse, loyiha va kasbiy yozishmalar yaratish. Refleksiv-korreksion bosqich – o‘zini o‘zi baholash, o‘zaro baholash, o‘qituvchi hamda raqamli vositalar qayta aloqasi asosida matnni tahrirlash. Integrativ-natijaviy bosqich – egallangan bilim va ko‘nikmalarni yangi ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy kommunikativ vaziyatlarda mustaqil qo‘llash.

